

ЯНГИ ЗАМОН АДАБИЁТИДА ЗУЛФИЯ ИЖОДИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Panayeva O'g'iljon Bobojonovna

Urganch Innovatsion Universiteti o'zbek va

xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi, f.f.n

ugiljonpanayeva@mail.ru, tel: +99890 435 11 75

Annotatsiya: Mazkur maqolada Zulfiya ijodining yangi zamon adabiyotidagi o'rni, ahamiyati va ta'siri tahlil qilinadi. Zulfiya o'z ijodi orqali nafaqat ayol qalbining hissiyotlarini ifodalagan, balki Vatanga bo'lgan sadoqat, mehr-muhabbat va insoniy qadriyatlarni ham yuksak pog'onaga ko'targan ijodkorlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, Zulfiya ijodining yangi zamon adabiyotida tutgan o'rni, uning adabiy an'analarga qo'shgan hissasi va XXI asr o'zbek poeziyasiga ta'siri keng yoritiladi.

Kalitli so'zlar: ayol taqdiri, milliy o'zlik, lirik sub'ekt, shaxsiy falsafa, estetik mazmun, ruhiy kechinma, e'tiqod, obraz, ifoda, she'riyat, ilhom, timsol.

Аннотация: В данной статье анализируется роль, значение и влияние творчества Зульфийи в современной литературе. Зульфийа – одна из художниц, которые не только выразили через свое творчество эмоции женского сердца, но и подняли на высокий уровень верность Родине, любовь и общечеловеческие ценности. Также будет широко освещена роль творчества Зульфийи в современной литературе, ее вклад в литературные традиции и влияние на узбекскую поэзию XXI века.

Ключевые слова: женская судьба, национальная идентичность, лирический субъект, философия личности, эстетическое содержание, духовный опыт, вера, образ, выражение, поэзия, вдохновение, символ.

Abstract: This article analyzes the role, importance and influence of Zulfia's work in modern literature. Zulfia is one of the artists who not only expressed the emotions of a woman's heart through her work, but also raised the loyalty to the Motherland, love and

human values to a high level. Also, the role of Zulfia's work in modern literature, her contribution to literary traditions and influence on Uzbek poetry of the 21st century will be widely covered.

Key words: female destiny, national identity, lyrical subject, personal philosophy, aesthetic content, spiritual experience, belief, image, expression, poetry, inspiration, symbol.

O'zbek adabiyoti tarixida Zulfiya alohida o'rin tutadigan ijodkorlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Uning ijodi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ifodalagani, zamonaviy o'zbek she'riyatining taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgani bilan ahamiyatlidir. Zulfiyaning asarlarida ijtimoiy ong, milliy o'zlik, ayol taqdiri va mehr-muhabbat mavzulari o'ziga xos badiiy yechim topgan. Uning ijodi adabiy tahlil nuqtai nazaridan o'rganilganda, she'riy ifodaning lirik va falsafiy chuqurligi, metaforalar va simmetrik obrazlar tizimi alohida o'rin tutishi ko'zga tashlanadi.

Zulfiya ijodining asosiy markazi – uning lirik qahramonidir. Uning she'rlaridagi lirik sub'ekt ehtirolar va ichki kechinmalar ifodasida namoyon bo'ladi. Shoiraning “Xulkar”, “Men tongni kuylayman”, “Dugonalar bilan suhbat”, “Yuragimga yaqin kishilar”, “Gullarim”, “Kuylarim Sizga”, “Hayot jilosi”, “Lolaqizg'aldoq”, “Quyoshli qalam”, “Visol” kabi to'plamlarida Vatan madhi, mehnat jarayonida fidokorlik ko'rsatayotgan kishilar hayoti jo'shib kuylanib, uning samimiy tuyg'ulari, oila va jamiyatga bo'lgan munosabatlari o'ziga xos lirik talqinda tasvirlanadi.

Zulfiyaning “So'roqlaydi shoirni she'rim”, “Oydin”, “Quyoshli qalam” kabi ocherk, poyema va dostonlari Oybek, Oydin va Hamid Olimjon xotiralariga bag'ishlangan. Shoir o'z ustozlariga bo'lgan muhabbatini nafaqat asarlarida, balki ularning xotiralarini abadiylashtirish, meroslarini keng ommaga yetkazish orqali ham ifoda etgan.

Zulfiya – sadoqat va vafo timsoli sifatida nafaqat ijodiy, balki shaxsiy hayotida ham ayolga xos matonatni, muhabbat va sadoqatni namoyon etgan so'z ustalaridan biri. Uning “Men o'tgan umrga” she'rida inson hayoti, muhabbat va taqdirga bo'lgan munosabat ifoda etilgan.

She'r tahlilida birinchi navbatda, uning lirik qahramoni orqali adibaning shaxsiy falsafasi, hayotga bo'lgan ishonch va uning ma'naviy qimmatlari aks etganini ko'ramiz. Birinchi bandda u o'tgan hayotini qayta nazardan kechirib, uni tabassum bilan qabul qilib, shukrona qalbini aks ettirgan:

“Hayot kitobimni bexos varaqlab,
Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim.
Tabassum o'rnida kuldim charaqlab,
Suyish kerak bo'lsa-telbacha suydin.”

Bu bandda ijodkorning o'tgan umrini hasrat bilan emas, balki tajriba sifatida qabul qilishini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, u muhabbatni samimiy, hech qanday hisob-kitobsiz ifoda etgan. Bu o'rinda Zulfiya ijodidagi sadoqat mavzusi o'zini namoyon qilib boradi.

Ikkinchi bandda u moddiy boylikka emas, ruhiy boylikka ko'proq ahamiyat berganini ta'kidlaydi:

“Kiyganim ipakmi, chitmi yo kimxob,
Yurak boyligidan qilmapman parvo.
Meni og'ushlagan hayot naq oftob,
Yangi qo'shiq talab unda har saboq.”

Bu yerda hayotga bo'lgan ishonch, shukrona hissi, har bir o'tgan lahzadagi ma'naviy qadriyatlarni anglash, inson o'z hayotining mazmunini o'zi belgilashi kerakligi kabi falsafiy qarashlar mavjud.

She'rning kulminatsion qismi uning hayotdan o'rgangan asosiy darslarini bayon qiladi:

“Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim,
Hech kimda ko'rmayin umringa o'xshash:
Suydim,
Erkalandim,
Ayrildim,

Kuydim.

Izzat nima – bildim.

Shuda bir yashash!”

Bu qatorlarda insonning hayotidagi tajribalar, muhabbat, ziyon va foydalar orqali shakllangan hikmat ifodalanadi. Zulfiya bu yerda muhabbatning nafaqat baxtli damlarini, balki uning og‘riqli tomonlarini ham tan olish va shundan kelib chiqib yashash muhimligini ta’kidlaydi.

Ulug‘ Vatan urushi davrida Zulfiyaning “Uni Farhod der edilar” va “Hijron onlarida” kabi to‘plamlari nashr etilgan bo‘lib, ulardagi she’rlar Vatanga muhabbat va g‘alabaga ishonch ruhida yaratilganligi bilan ajralib turadi. Bu to‘plamlardagi asarlar orqali shoira xalqning matonati, jasorati va kelajakka bo‘lgan ishonchini teran ifoda etgan.

Zulfiyaning ushbu to‘plamlari urush davrida xalqning ruhiy quvvati va g‘alabaga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Ular orqali shoira Vatanga muhabbat, matonat va sabr-toqat kabi tuyg‘ularni xalq ongiga singdirishga harakat qilgan.

Zulfiyaning “Bu oqshom” she’ri o‘zining chuqur falsafiy va estetik mazmuni bilan ijodkor shaxsning ruhiy kechinmalari, inson va abadiylik o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritadi. Bu she’r nafaqat shaxsiy tuyg‘ularni aks ettiradi, balki ijod va millat taqdiri haqidagi umumiy qarashlarni ham o‘zida mujassam etadi.

She’rda Zulfiya o‘z ovozi baralla yangratmoqda. U o‘z ijodining ahamiyatini his qilib, uning kelajak avlodlarga ham etib borishiga ishonchi komil.

-“Bu oqshom porillar dil nuringizda,
Diydor baxti nasib yana Siz bilan.
Turibman, azizlar, huzuringizda,
Hamon o‘tlig‘ ko‘ngil, yorug‘ yuz bilan.”

Bu misralarda shoira o‘z muxlislari bilan ma’naviy aloqada ekanligini, uning ijodi qalblarni yoritishini ta’kidlaydi.

“...Yemira olmaydi o‘tkinchi taqdir,

Osuda o‘tadi ruhim abadga.”

Bu joyda abadiylik g‘oyasi ko‘zga tashlanadi. Shoiraning ruhi uning asarlari orqali yashaydi va kelajakka yo‘naladi.

Zulfiya o‘zini nafaqat shaxs sifatida, balki butun bir millatning vakili, uning sevimli farzandi sifatida namoyon etadi.

- “...Tonglaringiz kulsin, dorilomon, hur,
Baxtim shul-o‘zbekning Zulfiyasiman.”

Bu satrlarda shoira o‘zining o‘zbek xalqiga mansubligidan faxrlangani namoyon bo‘ladi. U o‘z ijodini xalq baxtiga bag‘ishlashini ta’kidlaydi.

Shoira ijod va hayot sinovlariga qaramay, haqiqat yo‘lida to‘g‘ri yurishga ishonch bildirmoqda.

-“Hanuz e’tiqodim haqiqat Haqdir,
So‘zlayman yuzimni tutib Ka’baga.”

Uning qalbidagi yuksak e’tiqod uning ijodiga ham ta’sir qiladi. U o‘z so‘zining kuchiga ishonadi va uni muqaddas qadriyatlar bilan bog‘laydi.

She’r nafaqat mazmun jihatidan, balki san’atkorona ifodalari bilan ham e’tiborga molik. Zulfiya badiiy obrazlar, metaforalar va hissiy kuchga to‘la tasvirlar orqali o‘quvchiga ta’sir etadi.

- Oftob va ziyo timsoli (“Asli siz oftobim, men ziyosiman”)

Bu yerda Zulfiya o‘zini xalqning nuridan, mehridan kuch olgan ijodkor sifatida tasvirlaydi.

- Ruhiy osudalik va taqdir timsoli (“Yemira olmaydi o‘tkinchi taqdir”)

Bu yerda shoira ijodkor uchun taqdir sinovlariga dosh berish muhimligini ko‘rsatadi.

Zulfiyaning “Bu oqshom” she’ri faqatgina shaxsiy kechinmalar emas, balki kelajakka yo‘naltirilgan ijodiy manifestdir. U o‘z ijodining xalq uchun muhimligini his qiladi va uning ovozi kelajak avlodlar qalbida jaranglashiga ishonadi. Shu bois, uning nomi nafaqat o‘z davrida, balki abadiylikka muhrlangan holda qoldi. Zulfiyaxon qizlari uning

yo'lini davom ettirishga da'vat qilinadi va bu uning ijodiy merosining asriyligini ta'minlaydi.

Zulfiya ijodi o'zbek ayol she'riyatining eng yuqori cho'qqilaridan biri bo'lib, uning ijodi nafaqat o'ziga xos nazokat va nafosat, balki sabr, vafo va muhabbat timsoli sifatida ham adabiyotimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan. Uning she'riyati ayol qalbidagi tuyg'ularni, millat va jamiyatga bo'lgan munosabatni teran va samimiy aks ettiradi. Uning davomchilari sanalgan Xalima Xudoyberdiyeva, Saida Zunnunova, Zulfiya Mo'minova, Tursunoy Sodiqova, Farida Afruz kabi shoiralar ham o'z ijodiy qarashlari bilan adabiyotimizga hissa qo'shganlar.

Zulfiyaning hayoti nafaqat ijodi, balki shaxsiy bardoshi, sabri va vafosi bilan ham ibratlidir. U 29 yoshida, eng go'zal va yosh davrida, sevgan insonidan ayrilgan. Lekin u bu yo'qotishga nolish va iztirob bilan emas, sabr va matonat bilan yondashdi. Hamid Olimjon bilan o'tgan 9 yil uning uchun bir umrlik muhabbat va sadoqat timsoli bo'lib qoldi. U nafaqat Hamid Olimjonning xotirasiga sodiq qoldi, balki uning ijodini saqlash, unutmaslik va kelajak avlodlarga yetkazish yo'lida ham fidoiylilik qildi.

Zulfiya turmush o'rtog'i vafotidan keyin qariyb 52 yil uning yodi bilan yashadi. U qaytib turmush qurmadi, muhabbatini vafo bilan saqladi. Uning she'rlarida ham bu sadoqat va muhabbatning izlari aks etgan.

Zulfiyaning boy ma'naviy merosi o'zbek adabiyotida muhim o'rin tutadi. Uning ijodi inson ruhiyatining chuqur qirralarini ochib berish bilan birga, ayniqsa, yosh qizlarimiz uchun psixologik maktab vazifasini o'taydi. Shoiraning asarlari orqali yoshlar hayotning turli sinovlariga bardosh berish, qiyinchiliklarga qaramay ezgu maqsadlar sari intilish va o'zligini anglashni o'rganadilar.

Zulfiya ijodi shukronalik, vatanparvarlik, sadoqat va mehr-muhabbatga chorlaydi. Uning hayot yo'li va ijodiy faoliyati bugungi yosh avlod uchun ibrat maktabi bo'lib, ularni ezgulikka, mehr-muhabbatga va vatanga sadoqatli bo'lishga undaydi.

Shoiraning ma'naviy merosi nafaqat adabiy, balki ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizning ham ajralmas qismi sifatida xalqimiz tomonidan e'zozlanadi. Uning

ijodi va hayot yo'li yoshlarimizning ma'naviy kamolotiga xizmat qilib, ularni ezgu amallar sari ilhomlantiradi.

Aziz va mukarram Zulfiyaxonim qizlari!

Sizlar buyuk Zulfiyaning ezgu yo'lini davom ettiruvchi ilhom manbayi, yorug' kelajakka intilayotgan ijodkorlarsiz. Alloh taolo qalblaringizga nur bag'ishlasin, qalamingizga quvvat bersin! Sizlarning har bir ijodiy qadamingiz Vatanimiz sha'ni, ayollarimiz sharafi va millatimizning ma'naviy boyligi uchun xizmat qilsin.

Dunyo bo'ylab sizlarning qalb so'zlaringiz jaranglasin, nomingiz abadiylikka muhrlansin! Yo'lingiz ravon, qalbingiz nurli, qalamingiz bardavom bo'lsin!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Зулфия. “Қуёшли қалам”.Т., 1970 йил.
2. Зулфия. “Кўзларингда борми, юлдузинг”. Забаржад медиа., 2022 йил.
3. Зулфия. “Хотира синиқлари”. Т., Адабиёт учқунлари. 2018 йил.
4. Зулфия. “Баҳор келди сени сўроқлаб”. Т., 2015 йил.